

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/3 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Ҳайитов Ҳушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амирор Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон

Республикаси Судъялар олий кенгаши
хузуридаги Судъялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;
Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;
Тайланова Шохида Зайнисевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;
Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор
Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги

Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;
Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;
Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;
Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик
Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал:
https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 - ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Шоев Иззатулло Хусенович</i>	
СУДЕБНОЕ ДЕЛО В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ	7-15
<i>Mirsoatova Sayyora Turg'unovna</i>	
KALTAMINOR MADANIYATINI DAVRIY MADANIY SANALASH MUAMMOLARI (sopol idishlar va uy-joylar misolida)	16-21
<i>Музafferжон Мансуров</i>	
СОВЕТ ИТТИФОҚИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ТАШҚИ ТУРИЗМ РИВОЖЛАНИШИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	22-32
<i>Qodirova Ra'no Mamirjonovna</i>	
O'ZBEKISTON SSR MAKTABALARIDA TARIX VA IJTIMOIY FANLARNI O'QITILISHI (XX asrning 30-yillari)	33-38

08.00.00 - ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Пардаева Шаҳноза Абдинабиевна</i>	
ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР МОЛИЯВИЙ ОҚИМЛАРИНИ БОШҚАРИШДА СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ ҲИСОБИНИНГ РОЛИ	49-45
<i>Камчibеков Фарход Олимжонович</i>	
ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИ	46-53
<i>Баратов Махсудали Назиралиевич</i>	
МИКРОМОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ЧЕТ ЭЛ ТАЖРИБАСИ ВА ИЖТИМОЙ МУАММОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШДАГИ РОЛИ	54-61
<i>Nosirov Ilkhom Abbosovich, Ermatov Ilmidin Toshmatovich</i>	
ENVIRONMENTAL MANAGEMENT OF THE USE OF NATURAL RESOURCES IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY OF UZBEKISTAN	62-71
<i>Nasirxodjaeva Dilafroz Sabitxanovna, Nurboyev Jalaliddin Mamadievich</i>	
O'ZBEKISTON MAXSUS IQTISODIY ZONALARINING EKSPORT KO'RSATKICHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR REGERESSION TAHLILI	72-78
<i>Aliyev Maruf</i>	
HOW TO IMPROVE THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM?	79-85
<i>Ачилов Уйғунжон Улубекович</i>	
ПЕНСИЯ ЖАМҒАРМАСИ ДАРОМАДЛАРИ ҲАЖМЛАРИГА ОМИЛЛАР ТАЪСИРИНИНГ ЭКОНОМЕТРИК ТАҲЛИЛИ	86-92
<i>Ashurov Maxammadjon Sotvoldievich</i>	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI INNOVATSION MODELGA O'TISHINING AYRIM YO'NALISHLARI	93-99
<i>Абдуллаева Зулфия Иззатовна</i>	
МЕҲМОНХОНАЛАРНИ КЛАСТЕРЛАШ - МЕҲМОНХОНА БИЗНЕСИДА БОШҚАРУВНИНГ САМАРАЛИ ШАҚЛИ	100-106
<i>Курбонов Сирожиддин Курбонович</i>	
МЕҲНАТ БОЗОРИДА ИШЧИ КУЧИ РАҶОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ	107-113

Ismakov Ibroxim Nabihevich

MHXS MUVOFIQ KONSOLIDATSIYALANGAN MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH
TEXNIKASI 114-126

Turobov Sherzod Alisherovich, Namozov Bekjon Bo'ron o'g'li

TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI TAHLILINI TASHKIL QILISH 127-133

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li

O'ZBEKİSTONDA TURİZM XİZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNİNG
MAKROIQTISODIY KO'RSATKİCHLARGA TA'SIRI 134-143

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Tojaliyev Abdukosim Abdulkakimovich*

INNOVATSIYA VA İJTIMOIY MADANIY RIVOJLANISH 144-154

Sagdullayeva Dilbar Shuxratovna

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI YOSHLAR İJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH OMILI
SIFATIDA 155-162

Abdumalikov Abdulatif Abidjanovich

ATROF MUHITGA INNOVATION MUNOSOBATNI SHAKLLANTIRISHNING İJTIMOIY-
FALSAFIY ASOSLARI 163-168

Xalliyev Jasurbek Iskandarovich

OGAHİY TARİXIY ASARLARIDA BİLİŞ TUSHUNCHASI BİLAN BOĞ'LIQ ERONİY QATLAMGA
OID MA'RIFIY-FALSAFIY İSTİLOHLAR 169-173

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Raximjonova Dilshodaxon Abubakir qizi*

AN'ANAVIY TERMINOLOGIYA MAKTABLARI 174-180

Осипова Агата Викторовна

СЛОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЕ РУССКОГО ЯЗЫКА УЗБЕКОЯЗЫЧНЫХ
УЧАЩИХСЯ 181-186

Ахмедова Азиза Комиловна

БАДИЙ ОБРАЗ ТАСНИФИ, ТИПОЛОГИЯСИ ВА БАДИЙ-ФУНЦИОНАЛ
ХУСУСИЯТЛАРИ 187-191

Кучкарова Ҳафиза

НЕМИС АДАБИЁТШУНОСЛИИГИДА ЖАНРНИНГ ЎРНИ 192-196

Комилова Муяссар Мавжудовна

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ РУССКОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ВОЕННОГО
АКАДЕМИЧЕСКОГО ЛИЦЕЯ ПРИ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОМ ОБУЧЕНИИ 197-203

Mirodilova Nargiza Mirvaliyevna

THE SEMANTIC – STRUCTURAL PRIORITIES OF ICT TERMINOLOGY 204-207

*Shirin Dadabayeva*COMPARATIVE SUPERSYNTACTIC INTEGRITY IN THE UZBEK AND ENGLISH
LANGUAGES

208-213

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Turdiyev Bexruz Sobirovich*

IBN SINONING HUQUQIY TA'LIMOTLAR RIVOJIDA QO'SHGAN HISSASI

214-220

Матчанов Фахриддин Курамбай ўғли

МАҲҚУМЛАРНИ АХЛОҚАН ТУЗАТИШ ВОСИТАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ БЎЙИЧА АЙРИМ

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ

221-226

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*Боборахматов Бобир Бўриевич*

ЕНГИЛ АТЛЕТИКАНИНГ ЮГУРИШ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА ҚЎП ЙИЛЛИК ТИЗИМЛИ

БОШҚАРИШ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯСИ

227-233

Uraimov Sanjar Ro'zmatovich

BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY FAOLLIGINI BAHOLASH

234-238

Shamuratov Jasur

O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA DARS JARAYONLARINI

TAKOMILLASHTIRISHDA YANGICHA PEDAGOGIK YONDASHUV

239-243

Fedotova Kristina Anatolevna

THE SIGNIFICANCE OF INTEGRATING LANGUAGE SKILLS IN THE PROCEDURE OF THE

ENGLISH LANGUAGE TEACHING

244-250

*Устоев Абдураззоқ Құрбонович*ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ ЖАРАЁНИДА ПСИХОЛОГИК ҚЎЛЛАБ-
ҚҰВВАТЛАШ

251-256

Ismoil Rustamov

CHOLG'U IJROCHILIGIDA DOIRA USULLARNING AHAMIYATI

257-263

Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich

X VA XI SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI CHAQIRUVGA QADAR

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK-2021 TESTLARI BILAN QIYOSIY BAHOLASH

264-268

Usmanova Dilnoza Muratovna

THE ROLE OF PROJECT METHODS IN REVEALING CREATIVITY OF ENGLISH

TEACHER

269-275

Atabayeva Mavjudा Rustamovna

O'ZBEKİSTON TABİİY GEOGRAFIYASINI O'QITISHDA KLASTER METODI ORQALI TANQIDIY

FIKRİSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

276-282

Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi

TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA TA'LIM JARAYONINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA

TASHKIL QILISH VA RIVOJLANТИRISHNING METODIKASI

283-289

<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i>	
BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARINI MAKTABDA PSIXOLOGIK XAVFSIZ TA'LIM MUHITINI LOYIHALASH UCHUN TAYYORLASH	290-296
<i>Matchanova Nargiza To'lqinovna</i>	
O'ZBEKISTONDA XORIJY TALABALARING IJTIMOIY MOSLASHUV MUAMMOLARI	297-304
<i>Erkaboyeva Feruz G'ayratovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN VA O'YINCHOQLARNING O'RNI	305-309
<i>Bozorova Aziza Saidmurot qizi</i>	
MAKTAB O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TA'LIM MASALALARI (boshlang'ich ta'lim misolida)	310-315
<i>Сулейманова Дилдора Назаровна</i>	
КРЕАТИВ ТАФАККУР ТУШУНЧАСИННИГ ФАЛСАФИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАНБАЛАРДАГИ ТАЛҚИНИ	316-325
09.00.00 - СИЁСИЙ ФАНЛАР	
<i>Farruq Әшмаматов Эшқобил ўғли</i>	
СИЁСИЙ МАФКУРА – ЖАМИЯТ РИВОЖИ ВА ШАХС ФАОЛИЯТИНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИНИ БЕЛГИЛАБ БЕРУВЧИ МУҲИМ ҒОЯЛАР ТИЗИМИ СИФАТИДА	326-334

Xalliyev Jasurbek Iskandarovich,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali
+998937537007

OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA BILISH TUSHUNCHASI BILAN BOG'LIQ ERONIY QATLAMGA OID MA'RIFIY-FALSAFIY ISTILOHLAR

Annotatsiya. Maqolada Ogahiy tarixiy asarlaridagi bilish tushunchasi bilan bog'liq eroniy qatlamga oid ayrim ma'rifiy-falsafiy istilohlar ma'no taraqqiyoti hamda urfiy va xos ma'nolari haqida so'z yuritilgan. Zarur o'rinnlarda keltirilgan misollar o'zbek adabiyotining boshqa vakillari, xususan, Alisher Navoiy ijodi bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: tarixiy asar, ma'rifiy-falsafiy asar, eroniy qatlam, leksik qatlam, o'zlashma, o'zlashma istiloh, xalq tafakkuri, ma'rifiy-falsafiy istiloh,

Жасурбек Исхандарович Халлыев,
Независимый научный сотрудник
Ургенчского государственного университета
Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

ОБРАЗОВАТЕЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ТЕРМИНЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПОНЯТИЕМ ЗНАНИЯ, В ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ОГАХИ ИРАНСКОГО СЛОЯ

Аннотация. В статье говорится о развитии значения некоторых интеллектуально-философских терминов, связанных с понятием знания, в исторических трудах Огахи, а также их традиционных и специфических значениях. Представленные в необходимых местах примеры сравниваются с другими представителями узбекской литературы, в частности, произведениями Алишера Навои.

Ключевые слова: историческая работа, учебно-философская работа, иранский пласт, лексический пласт, ассимиляция, ассимиляционная истила, народная мысль, учебно-философская истила,

Jasurbek Iskandarovich Halliyev,
Independent researcher of Urganch State University
Urganch Branch of Tashkent Medical Academy

EDUCATION AND PHILOSOPHICAL TERMS RELATED TO THE CONCEPT OF KNOWLEDGE IN OGahi'S HISTORICAL WORKS OF THE IRANIAN LAYER

Abstract. The article talks about the development of the meaning of certain intellectual-philosophical terms related to the concept of knowledge in Ogahi's historical works, as well as their traditional and specific meanings. The examples presented in the necessary places are compared with other representatives of Uzbek literature, in particular, the works of Alisher Navoi.

Key words: historical work, educational-philosophical work, Iranian layer, lexical layer, assimilation, assimilation istila, folk thought, educational-philosophical istila,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI3Y2023N21>

Kirish. Har qanday mutafakkir dunyoqarashi o'z xalqining tafakkur chashmalaridan suv ichib shakllanadi va rivojlanadi. Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy asarlarida ham ana shunday holatning yaqqol ifodasini ko'ramiz. Uning tarixiy asarlarida asrlar davomida o'zbek xalqi ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashida mustahkam o'rnashib qolgan tushunchalarni ifoda etuvchi MFI (falsafiy-ma'orifiy istiloh)lar alohida bir tizimni tashkil qiladi.

Ilmiy-tadqiqot metodlari. Maqolada masalaga tavsifiy, qiyosiy-tarixiy metodlar asosida yondashilgan.

Muhokamalar. Eroniy qatlamga mansub MFIIlar sirasida Ogahiy tarixiy asarlarida faol ishlatilgan *donish, dono, binish, bino // bino* kabilarni ham qayd etish mumkin. *Donish* bilmoq ma'nosidagi *donistan* (hozirgi zamon negizi *don*) fe'lining harakat nomi shakli bo'lib, bilim, ma'rifat ma'nosida otga aylangan. [1, 255] Uning fors tilidagi ma'nosi bilish, bilimdan ham tashqari ma'rifat, ilm, irfon hamdir. Shuning uchun "Farhangi forsiy"da uning ma'nodoshlari sifatida *andisha // andesha, binish, hikmat, xirad, donoiy (donolik), shinoxt (tanish, anglash), ilm, farhang, fazl, ma'rifat* kabilar qayd qilingan (Bunga taalluqli misollarni fikrimiz isbotini yorqinroq ifoda topishi uchun bir asar ("Riyozu-d-davla") doirasida keltirdik). Ogahiy ko'pincha *donish* va *binish* MFIIlarini birgalikda qo'llaydi: "arbobi *donish* va ashobi *binishning* oldida avlo va ansab uldur..." (RD, 344^b); "Muhammad Rizo mirob almutaxallis bi-l-Ogahiy ibn Erniyozbek g'afarallāhu ȝunybahumā va satara 'uyybahumā, arbobi *donishu* ashobi *binishga* ajz tilining shikastamaqollig'i bila mundoq arzi hol qilur..." (RD, 248^a)

Natijalar. Ogahiy tarixiy asarlarida *donish* o'zagidan yasalgan so'zlar ham o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra MFI tizimiga aloqadorlik kasb etadi: Masalan, *donishnishon* – ma'rifatl odam: "*donishnishon* Sultonxoja va biri manqit beklaridin rif'atmakon Musobek erdi,.." (RD, 255^b)

Durandesh – uzoqni o'ylovchi, uzoqni ko'ra oluvchi; *donishkesh* – ilmli, ma'rifat kasb etgan. Undagi *kesh* so'zi *aqida, oyin, tutum* kabi ko'plab ma'nolarni bildiradi [11, 1577]: "*durandesh* va *donishkesh* kishi erdi, fikri soqib va royi soyib bodasining sog'arkashlig'idin purdil va dalirlilik nash'asin topib,.." (RD, 259^a)

Ogahiy tarixiy asarlarida -*kesh* va -*andesh* tarkibli boshqa MFIIlar ham bor. Ular o'zaro ohangdosh va mazmuniy mutanosib bo'lgani uchun asosan birgalikda keladi. Masalan,

Kajandesh – egri o'ylovchi. So'z asosi sanalgan *kaj* hozir ham Xorazm shevalarida faol ishlatiladi. [5, 102] Bu uning "Navoiy asarlari lug'ati"dagi ma'nolariga muvofiq keladi [7,300]: "...barcha *kajandesh* va *fasodkeshlar*..." (RD, 278^a); "...*itoatkesh* xodimlar va *ixlosandesh* mulozimlar zumrasig'a doxil bo'lub,.." (RD, 280^a); "...*shijoatkesh* va *muborazatandesh* bahodirlari,.." (RD, 282^a); "...bu amrda musohalakorlig' qilmoq *xiradkeshlik* va *durandeshlik* umuridin baid va yiroqdur,.." (RD, 283^a). So'nggi misoldagi *xiradkeshlik* (oqillik, o'ylab ish qilish) so'zi asosi *xirad* fors tilida aql ma'nosini anglatadi. Bu so'z pahlaviy tilida *xrat*, avestoviyda *xratu*, sanskaritda *kratu*, o'rta fors tilida *xrat* shakllarida bo'lgan [10, 729]. *Xirad* inson uchun jon qadar qadrli bo'lgani bois Hakim Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"ni

Ba nomi xudovandi jonu *xirad*
K-azin bartar andisha bar guzarad,
ya'ni
U Xoliqki, bermish biza aqlu jon,

Uning qudroati vasfa sig'mas, inon [2, 25].

Xiradmand – aqli kishi, donishmand.

Xirad ko'nglig'a eyla sayqal berur,

Ki ming yil kelur ishdin ogoh erur. (FI, 28)

Xiradmande agar bersa sanga pand,

Eshit pandini, bor ersang *xiradmand*. (FI, 201)

Keyingi misolda bayt *xiradmand* so'zi boshlanib, shu so'z bilan tugaydi. Mumtoz adabiyotimizda raddu sadr ila-z-zarb (agar misra biror so'z bilan boshlanib, shu so'z bilan tugasa, raddu sadr ila-a-aruz) deb nomlanuvchi bu san'atning o'ziga xosligi, zikr etilayotgan tushunchaga o'ta katta e'tibor qaratilayotganini anglatadi. Buning yorqin dalili Alisher Navoiyning

Odamiy ersang, demagil odamiy,

Oniki, yo'q xalq g'amidin g'amiy –
shohbaytidir.

Doshinosor – donishmand, ma'rifatli shaxs. Fors va arab tillariga oid so'zlardan birikib tarkib topgan qo'shma so'z: "Chun shohzodayi komkorning rasuli *donishosori* davlat yanglig' aning sarvaqtig'a etti,.." (RD, 262^b). Bu yerda *rasuli donishosor* – bilimdon elchi. Ogahiy tarixiy asarlarida *rasul* so'zi diplomatik ma'noda ishlatilgan. Ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi uning *elchi* so'ziga ma'nodosh sifatida qo'llashga monelik qilmaydi: "Turbat hokimi Muhammadxon Qaroyi valadi Isoxon Qaroyikim, qaroyi elining sardor va farmonravoyi erdi, anga dog'i bir kordon *rasule* inoyat yuzidin irsol qildi". (RD, 261^b) Ushbu parchada Ogahiy *rasul* va *irlsol qildi* so'zları orqali ishtiqoq san'atini yuzaga keltirmoqda [8]. Alisher Navoiy asarlarida ham *rasulning* diplomatikaga oid istiloh sifatida ishlatilgan:

Bordi ul kishvarg'akim borg'ay *rasul*,

Ayladi onda rasulona nuzul [3].

Donishshior – ma'rifatparvar, ma'rifatli, ilmu idrokli odam: "*donishshior* sardorlarga o'rduyi kayhonpo'y va lashkari qiyomatasarni boshlatib yiborildi,.." (RD, 276^b)

Donishvar – donish egasi. Fors tilida -var // -vor qo'shimchasi "o'xhash", "monand" ma'nolarida sifatlar yasaydi. Bu affiksning shakllanishi "Avesto"dagi "kesik", "bo'lak" ma'nolaridagi *vara* bilan bog'lanadi. Toponimlar tarkibidagi "shahar", "qo'rg'on" ma'nolarida *bara*, *vara* komponentlari ham aynan shu o'zak bilan aloqadordir. Mazkur komponetlar, jumladan, Xorazm toponimlarida alohida bir etapni tashkil etadi [4, 17-19]. Keyinchalik bo'lak, qism ma'nolari kengayishi natijasida uning bugungi ma'nosi shakllangan: *devonavor* (devonalarning biri, devonaga o'xhash). "Ul parviyyash hajridinkim, yig'ladim *devonavor*" (Alisher Navoiy). Hikmatoyin xadivi *donishvar*, Ulamo do'stu ham hunarparvar. (RD, 288^b)

Donishinsho – vujudida ma'rifat osori ustun shaxs: "alarning xizmat va rafoqatig'a *donishinsho* Miskin aqoni ta'yin etdi,.." (RD, 325^a)

Donishiktisob – ma'rifat kasb etgan. *Iktisob* arabcha *kasb* so'zidan hosil qilingan bo'lib, "kasb qilish, qozonish, qo'lga keltirish" [7,269] ma'nolarini anglatadi: "vaziri hikmatmaobi *donishiktisobi* sadoqatasar Muhammad Yusuf mehtar ravvahallohu ruhahukim,.. (344^a)

Donishasar – ma'rifatdan bahramand: "*donishasar* Muhammad Ya'qub mehtar,.." (RD, 357^b) Bu o'rinda *donishasar* so'zi *mehtar* so'zi bilan ohangdoshligi ham e'tiborga olingan.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi *dono*, *xono*, *biyno* MFIIlari bir xil morfologik qolipda hosil qilingan, ya'ni fors tilidagi hozirgi zamon sifatdosh shaklidan sifatga aylangan, keyinchalik esa

otga ko'chgan so'zlardir. Shulardan biri *tavono* aynan *qila oladigan, qila oluvchi* degani bo'lib, qudrat sohibi ma'nosini anglatadi. Bilim katta kuch ekani, bilimli odam odam qudrat sohibiga aylanishi haqida Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" muqaddimasida aytgan

Tavono buvad harki, dono buvad,
Zi donish dili piyr barno buvad,
ya'ni
"Qudratlidir kimki bo'lsa bilimdon,
Bilimdan keksalar dili navqiron" [9, 227] bayti mashhur.

Biyno so'zi ko'rmoq ma'nosidagi diydan fe'lining hozirgi zamon o'zagi *biyga o* qo'shimchasining qo'shilishi natijasida yasalgan va aynan ko'rurvchi, ko'radigan ma'nosini bildiradi. *Bin* (ko'r-) o'zagidan yasalgan yana bir MFI *binish*. Ogahiy tarixiy asarlarida, yuqorida ko'rghanimizdek, *idrok, anglash, yuksak zehn* kabi ma'nolarni anglatadi: "fazlu donish bobida nodirayi zamon, aqlu *binish* vajhida faridi davron erdi" (RD, 348^b)

Tamosho qilg'ali shan'u shukuhu rutbau johin,
Kavokibning falakka har biri bir chashmi *biynodur*. (RD, 356^a)

Demak, Ogahiy asarlarida *biyno* aynan idrok nazari bilan ko'rish degan ma'noda ma'rifiy-falsafiy mazmun kasb etgan. Ochib ibrat kuzin, kilgil tamosho gar esang biyno... [6, 325]. Arabcha *bino* بِنْ va forscha *biyno* بِيْنَ eski yozuvimizda har xil yozilishiga qaramay, ayrim hollarda ular joriy alifbolarimizga bir xil shaklda o'giriladi:

Tamosho qilg'oli shonu, shukuhu, rutbau, johin,
Kavokibning falakka har biri bir chashm *binodur* [6, 515].

Xuddi shu kabi *xono* so'zi ham xondan o'qimoq fe'lining hozirgi zamon shakli -*xonga* -o qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. *Biynoda* bo'lgani kabi ma'no ko'chishi natijasida *xono* idrok bilan o'qiy oluvchi, anglagan holda mutolaa qiluvchi mazmunini kasb etgani bois MFI sanaladi. Buni Ogahiy lirikasida ko'ramiz:

Hech kim xati avroqi kamoling o'quy olmas,
Har necha esa lavhi falak satriga *xono* [6, 27].

Yoki
Kishi gar donish ichra to'rt daftarga erur *xono*,
Agar yolg'uz esa nodoncha qadri bo'lmag'ay jono...[6, 332]

Bu satrlarda tilga olingan *to'rt daftar* to'rt ilohiy kitob – *Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on*. Demak, satrlar mazmuni bizning yuqoridagi fikrlarimizni to'la quvvatlaydi.

Xulosa. Ogahiy tarixiy asarlarida eroni qatlama mansub MFIlar faol qo'lllanishi fors adabiyotining jahon durdonasiga aylangan badiiy va tarixiy asarlarining sezilarli ta'siri. Xususan, Munis, Ogahiy, Bayoniy ishlatgan so'zlarning ko'pchiligini "Shohnoma", "Guliston", "Tarixi Bayxaqiy", "Ravzat us-safo" kabi asarlarda uchratamiz. Demakki, ba'zi so'zlarning o'zlashishida fors adabiyoti ham sezilarli ta'sir o'tkazgani; fors tilida yaratilgan ko'plab tarixiy va badiiy asarlarning tarjima jarayonidagi ta'siri. Xususan, besh tarixiy asar muallifi Muhammad Rizo Ogahiy fors tilida yaratilgan beshta tarixiy asar (Ogahiy tomonidan fors tilidan amalga oshirilgan tarjima asarlarning umumiy soni o'n sakkizta) tarjimonи bo'lgани va Ogahiyning ayrim so'zlarni qo'llashida ana shu tarixiy asarlardan ta'sirlangani kabi omillar bilan izohlanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Abdusamadov M. Fors tili. – Toshkent: Sharq, 2007.
2. Әbüлқасим Firdovsi. Şahnamə. Tərcümə edəni Mübariz Əlizadə.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996.
4. Дўсимов З. Хоразм топонимари. – Тошкент: Фан, 1985.
5. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч: Хоразм, 1999.
6. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд: Девон. Нашрга тайёрловчилар Д.Фойипов, С.Сариев, Б.Умрзоқов. Тошкент: Mumtoz so‘z, 2014.
7. Навоий асарлари луғати. – Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
8. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс ... – Тошкент, 2018.
9. Ҳикматлар шодаси. –Тошкент: O‘zbekiston, 2012.
10. شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ۱۳۸۶ . جلد ۲
محمد معین. فرهنگ فارسی. جلد دوم. تهران.امیر کبیر.
11. Ҳикматлар шодаси. –Тошкент: O‘zbekiston, 2012.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/3 (3)-2023 йил

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
маъсулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).